V. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK

Hududlar bo‘yicha 2024- yil 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, *birlikda*

2024- yil 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni jami **23 854** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **6 347** tani tashkil etdi. Hududlar bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko‘pi Urganch shahrida **4 561** tani yoki jamiga nisbatan **19,1 %** ni tashkil etdi.

2024- yilning 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo‘lgan iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha soni va ulushi



Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi

2023-yil yanvar – dekabr holatiga (jamiga nisbatan foizda)



Eng ko‘p kichik biznes subyektlari savdo sohasida jami tashkil etilgan subyektlarning (41,7 foizi), sanoat tarmog‘ida (17,8 foiz), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida (10,9 foiz), tashish va saqlash xizmatlarda (6,1 foiz) tashkil etilgan.

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda)*



2024- yil 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatan 14,3 birlikni tashkil etib, bu ko‘rsatkich 2023- yil 1- yanvar holatiga nisbatan 1,1 birlikka ko‘paygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatining eng yuqori ko‘rsatkichi Urganch shahrida 30,1 birlik, Xiva shahrida 19,4 birlik, Yangibozor tumanida 17,1 birlik, Urganch va Tupraqqal'a tumanida 14,3 birlikka yetdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni
(birlik, fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

	2024- yil 1- yanvar holatiga ro'yxatga olingan	*2023- yil yanvar - dekabr*	
		tashkil topdi	*tugatildi*
Viloyat bo'yicha:	**31 680**	**6 347**	**2 225**
shaharlar:			
Urganch	5833	841	351
Xiva	2570	378	121
tumanlar:			
Bog'ot	2198	553	150
Gurlan	2183	490	169
Qo'shko'pir	2610	610	193
Urganch	3586	657	195
Hazorasp	1946	497	152
Tuproqqal'a	775	166	40
Xonqa	2311	380	119
Xiva	2375	398	101
Shovot	1987	591	226
Yangiariq	1810	442	201
Yangibozor	1496	344	207

2023-yil yanvar-dekabr oylarida viloyatda ro'yxatga olingan yangi kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari soni 6 347 tani tashkil topgan bo'lib, bu ko'rsatkich Urganch shahrida 841 ta, Shovot tumanida 591 ta, Urganch tumanida 657 ta, Qo'shkupir tumanida 610 ta, Bog'ot tumanida 553 ta, Gurlan tumanida 490 ta, Hazorasp tumanida 497 ta, Yangiariq tumanida 442 ta, Xiva tumanida 398 ta, Xiva sh. 378 ta, Xonqa tumanida 380 ta, Yangibozor tumanida 344 ta va Tupraqqal'a tumanida 166 tani tashkil qildi.

2023- yil yanvar-dekabr oylarida yalpi hududiy mahsulotning 69,7 foizi (2022- yil yanvar-dekabrda 69,9 foiz) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.

2023- yilning yanvar- dekabr oylarida kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari tomonidan:

- sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 3 445,2 mlrd. so‘mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 16,3 foizi) tashkil qildi;

- 26 766,9 mlrd. so‘mlik qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklari mahsulotlari ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) bo‘lib, o‘sish sur’ati 103,6 foizni (qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklari yalpi mahsulotining 96,3 foizi) tashkil qildi;

- 5 247,7 mlrd.so‘mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalarha jmining 43,5 foizi) o‘zlashtirildi va 2022- yilning yanvar- dekabriga nisbatan 103,3 foizni tashkil qildi;

- 5 193,4 mlrd.so‘mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 102,3 foizi) bajarildi va 2022- yilning yanvar- dekabriga nisbatan 90,4 foizni tashkil qildi;

- avtomobil transporti yuk aylanmasining 101,5 foizga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 81,3 foizi), yo‘lovchi aylanmasining esa 101,9 foizga (umumiy yo‘lovchi aylanmasining 96,2 foizi) tashkil qildi;

- chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 94,9 foizi yoki 12 706,5 mlrd. so‘mi (o‘sish 108,5 foiz) va xizmatlar umumiy hajmining, mos ravishda 58,2 foizi yoki 7 725,1 mlrd. so‘mi (o‘sish 107,6 foiz) shakllantirildi;

- 192,9 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 65,0 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi. 230,2 mln. AQSh dollari (umumiy import hajmining 40,0 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi.

Mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi

(2023- yilning yanvar- dekabrida)

	Kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmi, mlrd.so‘m	*Mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % hisobida*
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	26 766,9	96,3
Sanoat	3 445,2	16,3
Qurilish	5 193 ,4	90,4
Chakana savdo	12 706,5	94,9
Yuk tashish, *mln tn.*	37,1	95,2
Yo‘lovchi tashish, *mln.kishi*	435,0	94,6
Eksport, *mln. AQSh doll.*	192,9	65,0
Import, *mln. AQSh doll.*	230,2	40,0

Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko‘rsatkichlari, % da